

Date: 13th July-2026

UDK. 633.854.78:631.527

**KUNJUT (*SESAMUM INDICUM* L) NAV VA NAMUNALARNING QIMMATLI
XO‘JALIK BELGILARINI MAHSULDORLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI.**

Amanova Maxfurat Eshmuradovna

ToshDAU, Sabzavotchilik va issiqxona xo‘jaligi kafedrası professori

peanut66@mail.ru

Norov Ilxom Chori o‘g‘li

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

ilhom_norov94@mail.ru

Annatatsiya: Qashqadaryo viloyati iqlim-sharoitida kunjut jahon kolleksiyasining 100 ta nav va namunalari morfobiologik va qimmatli xo‘jalik belgilari yani 1000 dona don vazni , bir tup o‘simlikdagi qo‘zoqchalar soni, donada xamda bir o‘simlikdagi qo‘zoqchadagi urug‘ soni kabi qimmatli xo‘jalik belgilarning mahsuldorlik ko‘rsatkichiga ta’siri o‘rganilgan.

Аннотация : В климатических условиях Кашкадарьинской области было изучено влияние морфобиологических и экономических показателей, таких как масса 1000 зерен и образцы из мировой коллекции, например, масса 1000 зерен, количество семядолей на растении, а также количество семян в семени и семядолях на растении, на показатели продуктивности..

Annotation: In the climatic conditions of Kashkadarin region, the influence of morphobiological and economic indicators was studied, such as the mass of 1000 seeds and images from the human collection, for example, the mass of 1000 seeds, the number of seeds and plants, and also the number of seeds and seeds and seeds and plants, and the productivity of plants.

Kalit so‘zlar: kunjut jahon kolleksiyasi, namuna, seleksiya, bitta o‘simlik mahsuldorligi, 1000 dona don vazni, birlamchi manba.

Ключевые слова: мировая коллекция кунжута, образес, селекция, скороспелост, продуктивность одного растения, масса 1000 зерен, первичный материал.

Key words: world collection of sesame, sample, selection, productivity of one plant, 1000-grain weight, primary material.

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon kolleksiyasidan Respublikamizning janubiy hududlari iqlim sharoitiga mos kunjutning ertapishar, serhosil, yirik urug‘li, qurg‘oqchilikka va moy miqdori yuqori bo‘lgan eksportbop yangi navlarni yaratish uchun o‘simliklar jahon genofondidan istiqbolli birlamchi manbalarni tanlab olish va seleksiyaga jalb etish, hamda tizmalar yaratishdan iborat.

Respublikamiz aholisini keng assortimentli arzon va sifatli o‘simlik moyi bilan ta’minlash moyli ekinlarning urug‘i tarkibida moy miqdori yuqori bo‘lgan ertapishar, serhosil, ekologik stress omillarga bardoshli, eksportbop yangi navlarini yaratish,



Date: 13th July-2026

birlamchi va nav urug'chiligini tashkil etish hamda ishlab chiqarishga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Attar Roshan M. et al ning ilmiy izlanishlariga ko'ra kunjut (*Sesamum indicum* L.) sanoat va iste'mol uchun yetishtiriladigan eng qadimgi moyli o'simliklardan biridir. U dunyoning tropik va subtropik mintaqalarida keng tarqalgan. Kunjut mahsuldorlik ko'rsatkichi o'sayotgan sharoitlarga, navlarga va yetishtirish agrotexnikasiga qarab juda o'zgaruvchan bo'lishi aniqlangan [1].

Sudha Sundari K va boshqa olimlarning ma'lumotlariga ko'ra kunjut seleksiya va urug'chilikda don hosildorlik ko'rsatkichiga quydagi belgilar 1000 dona don vazni va har bir shoxdagi qo'zoqchalar soni kabi qimmatli xo'jalik belgilar kunjut don hosildorlik ko'rsatkichini oshirishga xizmat qiladi [3].

Tadqiqot uslublari. Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutiga qarashli tajriba dalasida o'simliklar genetik resurslari ITI Milliy genbankida saqlanayotgan kunjut jahon genofondidan dunyoning 27 ta davlatlarida turli geografik xududlaridan jamlangan 100 ta namunalarini ekib o'rganildi. Tajribani joylashtirish va tajriba davomida fenologik kuzatish, hisob va tahlillar (Butunittifoq o'simlikshunoslik instituti (1984) uslubi bo'yicha bajarilgan. Biometrik tahlillar qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash markazining (1985, 1989) uslublari bo'yicha olib borilgan. Olib borilgan tadqiqotimizda andoza nav "Toshkentskiy -122" navi xamda 99 ta namunalar, 1 qaytariqda 5 m² maydonga ekib o'rganildi.

Tadqiqot natijalar. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra ushbu namunalarda bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni ko'rsatkichi tahlil qilinganida o'rtacha 90-137 tagacha bo'lib, andoza nav Toshkentskiy-122 navida bu ko'rsatkich 122 donani tashkil qilganligi tajriba natijalarida aniqlandi. Andoza navdan bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 11 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi. Andoza navdan past ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 16 tani tashkil qilganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Kunjut nav va namunalarida mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha tanlab olingan namunalar.

№	O'z O'ITI katalog nomeri	Kelib chiqishi	1 o'simlikdagi qo'zoqchala r soni donada	1 o'simlikda gi qo'zoqchad agi soni donada	1 o'simlik mahsuldo rligi, g	1000 dona urug' vazni, g
1	Toshkentskiy-122(andoza)	O'zbekiston	122	65	21,62	2,73
2	K-7	O'zbekiston	132	68	25,85	2,91
3	K-17	O'zbekiston	137	69	26,92	2,87
4	K-60	O'zbekiston	125	67	24,42	2,93

Date: 13th July-2026

5	K-53	O'zbekiston	128	65	24,29	2,91
6	Mahalliy-1	O'zbekiston	132	70	25,55	2,77
7	Mahalliy-4	O'zbekiston	132	62	22,84	2,81
8	K-147	O'zbekiston	120	67	21,39	2,67
9	K-275	O'zbekiston	128	69	22,84	2,58
10	K-458	O'zbekiston	113	65	20,60	2,79
11	K-280	Turkiya	122	65	22,22	2,79
12	K-281	Turkiya	128	70	25,14	2,80
13	K-204	O.Rados	122	65	20,63	2,61
14	K-846	Meksika	105	57	17,37	2,90
15	K-848	Meksika	100	57	14,94	2,59
16	K-210	Meksika	107	61	18,74	2,85
17	K-107	Armaniya	115	67	20,11	2,61
18	K-249	Kitay	130	67	26,56	3,02
19	K-277	Misir	125	68	23,90	2,80
20	K-241	Azarbayjon	120	66	21,42	2,70
21	K-435	BADM-4	120	61	21,79	2,97
22	K-37	Germaniya	120	63	22,12	2,91
23	K-662	Sudan	130	67	27,43	3,15
24	K-826	Nigeriya	113	70	23,14	2,91
25	K-297	Turkmaniston	120	65	21,80	2,79
eng past ko'rsatkich			90	57	14,94	2,58
o'rtacha ko'rsatkich			120	65	22,06	2,81
eng yuqori ko'rsatkich			137	70	27,43	3,15

Tadqiqot natijalariga ko'ra bitta tup o'simlikdagi qo'zoqchadagi urug' soni o'rtacha ko'rsatkich 57-70 donagacha ekanligi tahlil natijalarida aniqlandi. Andoza Tashkentskiy-122 navida bitta tup qo'zoqchadagi urug'lar soni 65 donani tashkil qilgan bo'lsa andoza navdan bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 14 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi. Andoza navdan past ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni esa 8 tani tashkil qilganligi aniqlandi. Andoza nav bilan bir xil ko'satkichga ega bo'lgan namunalar soni 7 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi.

Tajriba natijalariga ko'ra bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi tahlil qilinganida o'rtacha ko'rsatkich 14,94-27,43 gni tashkil qilganligi aniqladi. Andoza Tashkentskiy-122 navida bit tup o'simlik mahsuldorligi ko'rsatkichi 21,62 gni tashkil qilgan bo'lsa, andoza navdan bu ko'rsatkich bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 9 tani tashkil qilganligi aniqlandi. Bir tup o'simlik mahsuldorlik ko'rsatkichi bo'yicha andoza navdan past ko'rsatkichni namoyon etgan namunalar soni esa 11 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarda aniqlandi. Andoza nav bilan deyarli bir xil ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 9 tani tashkil qilganligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra 1000 dona urug' vazni tahlil qilinganida o'rtacha ko'rsatkich 2,58-3,15 gni tashkil qilganligi aniqlandi. Andoza Tashkentskiy-122 navida

Date: 13th July-2026

1000 dona urug' vazni tahlil qilinganida 2,73 gni tashkil qilganligi aniqlandi. Andoza navdan yuqori ko'rsatkichni namoyon etgan namunalar soni 16 tani tashkil qilganligi aniqlandi. 1000 dona urug' vazni bo'yicha andoza navdan past ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni esa 8 tani tashkil qilganligi aniqlandi, andoza nav bilan bir xil ko'rsatkichga ega bo'lgan namunalar soni 5 tani tashkil qilganligi tahlil natijalarida aniqlandi.

Xulosa: Tadqiqot natijalariga ko'ra kolleksiya ko'chatzorida o'rganilgan 100 ta kunjut nav va namunalarining bir tup o'simlikdagi qo'zoqchalar soni, bir tup o'simlikdagi qo'zoqchadagi urug' soni, 1000 dona don vazni, kabi qimmatli xo'jalik belgilarni mahsuldorlik ko'rsatkichiga ta'siri tahlil qilindi. Ayni vaqtda, kunjutning qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha tanlab olingan namunalari bilan tadqiqotlar davom ettirilib, Qashqadaryo viloyati iqlim sharoitiga mos serhosil va eksportbop yangi navlarini yaratish bo'yicha seleksiya ishlari davom ettirilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXARI:

1. Attar Roshan M. et al. Study of phenological, physiological, and yield responses of indehiscent and dehiscent sesame (*Sesamum indicum* L.) cultivars to sowing dates in Dezful, Iran //Plant Productions. – 2024.
2. M.E. Amanova. //Kunjut ekoguruhlarining biologik xususiyatlari va seleksiya uchun birlamchi manbalar //Agro-ilm jurnali № 1(21), 31 b. Toshkent 2012 y.
3. Sudha Sundari K., Anitha Vasline Y., Saravanan K. Choice of Traits for Seed Yield Improvement based on Association Analysis Studies in Sesame (*Sesamum indicum* L.) //Agricultural Science DiGESt. – 2024. – T. 44. – №.
4. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. –M.: Kolos, 1985-416 s.

